

NAJMIDDIN KUBRO MA'NAVIY MEROSINING TASAVVUF ILMI RIVOJIDAGI ROLI ("USULUL ASHARA" ASARI MISOLIDA)

Sarvar Saidov

Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi bo'lim boshlig'i,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada buyuk mutasavvif Najmiddin Kubro (1145–1221) ning tasavvuf ilmi rivojiga qo'shgan hissasi uning "Usulul ashara" (O'n asos) asari asosida tahlil etiladi. Maqolada har bir usulning ma'naviy ahamiyati, insonning kamol topish jarayonidagi o'rni va Najmiddin Kubro maktabining tasavvuf tarixidagi o'ziga xos roli yoritiladi. "Usulul ashara" orqali tasavvufda nafs tarbiyasi, Allohga yaqinlashuv maqomlariga yetishishning ichki qonuniyatlari ko'rsatilgan bo'lib, maqola ushbu jarayonni manbaviy va tahliliy jihatdan yoritishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: *Najmiddin Kubro, Usulul ashara, tasavvuf, ma'naviy tarbiya, nafsni poklash, zuhd, rizo, muroqaba, so'fiylik.*

ABSTRACT

This article analyzes the contribution of the great mystic Najmiddin Kubro (1145–1221) to the development of Sufism based on his work "Usul al-ashara" (Ten Principles). The article highlights the spiritual significance of each method, its role in the process of human perfection, and the unique role of the Najmiddin Kubro school in the history of Sufism. Through "Usul al-ashara", the internal laws of self-education in Sufism and the attainment of states of rapprochement with Allah are shown, and the article is devoted to illuminating this process from a source and analytical perspective.

Keywords: *Najmiddin Kubro, Usul al-ashara, Sufism, spiritual education, purification of the self, asceticism, consent, muroqaba, Sufism.*

KIRISH

Najmiddin Kubroning "Usulul ashara" risolasida Kubroviya tariqatining eng asosiy o'n asosi sharhlanadi. Bu o'n asos quyidagilardan iborat: Tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, doimiy zikr, tavajjuh, sabr, muroqaba, rizo. Turli nomlar bilan manbalarda qayd etilgan ushbu risolaning kutubxonalarda yuzlab qo'lyozma nusxalari mavjud. Misol tariqasida ulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz:

1. **Hidoyat at-Tolibin**, Sulaymoniya kutubxonasi, №3917/5, №2450;
2. **Risola fi tariqati Najmiddin Kubro**, Boyazid kutubxonasi, №7898;

3. **Risola fi Usulul ashara**, Marmara universiteti Ilohiyot fakulteti kutubxonasi, №355;
4. **An-Najmiyya**, Sulaymoniya kutubxonasi, №616;
5. **Risolat al-Kubro at-Turuq**, Sulaymoniya kutubxonasi, №3917/6;
6. **Risola fi-t-tariqa**, Sulaymoniya kutubxonasi, №2755;
7. **Risola fi-t-Tasavvuf**, Sulaymoniya kutubxonasi, №3952/4.

“Usulul ashara” Kubroviya shayxi Sayyid Ali Hamadoni (vafoti 786/1385) tomonidan “Dah Qoida” yoki “Mizanul aqoid” nomi bilan fors tiliga tarjima qilingan.

Mazkur risolada Najmiddin Kubro “Allohga eltuvchi yo‘llar mavjudotlarning nafaslari sonichadir” degan fikrni ilgari suradi. Bu so‘z turli sharhlovchilar tomonidan har xil tarzda talqin qilingan. Bu yerda asl maqsad – har bir insonning o‘ziga xos fe‘l-atvori va tabiati bo‘lishi, shuning uchun uning Alloh bilan munosabati ham o‘ziga xos tarzda kechishi nazarda tutiladi. Bu holat barcha insonlar uchun amal qiladi. Ammo Shayx yuqoridagi iborasini yanada maxsus sohaga va o‘z maqsadi yo‘lida talqin qilib, bu yo‘llarni “tariqi axyor” (yaxshilar yo‘li), “tariqi abror” (taqvodorlar yo‘li) va “tariqi shutter” (haqiqiy so‘fiylar yo‘li) tarzida uch asosiy guruhga ajratishni ma‘qul deb bilgan [1].

Tariqi axyor – bu “ibodat va solih amallar egalarining yo‘li”dir. Bu yo‘ldan boruvchi soliklar ro‘za tutish, namoz o‘qish, Qur‘on tilovat qilish, haj qilish kabi zohiriy ibodatlarini ko‘plab ado etadilar. Ular ana shu yo‘l bilan ruhiy holatlarini yuksaltirib, Haqqa yetishga intiladilar. Biroq bu usulda Allohga yetishish juda uzoq vaqt va mashaqqatli jarayonni talab qiladi. Bu yo‘l orqali maqsadga yetganlar esa juda kam sonlidir [1].

Tariqi abror – bu “mujohada va riyozat egalarining yo‘li”dir. Bu yo‘ldagilar yaxshi xulqlarni o‘zlashtirish, qalbni poklash, ko‘ngil dunyosini musaffo holatga keltirish va ichki olamni bunyod etish va jonlantirishga harakat qiladilar. Ushbu yo‘l orqali Allohga yetganlar avvalgi yo‘lga nisbatan ko‘proqdir. Biroq bu guruhdagi soliklarning kamchiligi shundaki, ular riyozat va mujohadaga haddan ortiq berilib, asl maqsad – fanofilloh (ya‘ni Alloh yo‘lida o‘zini foniylar hisoblash) ni unutib qo‘yadilar.

Tariqi shutter – bu “ishq, jazba va muhabbat egalarining yo‘li”dir. Tariqi Shutter – yagona maqsadi Alloh bo‘lgan va Unga intilish yo‘lida sayr qilayotganlarning yo‘lidir. Bu yo‘lga tushganlar suluklarining boshidayoq boshqa yo‘ldagilarning hayotlari oxirida erishgan darajalaridan ham yuqori maqomlarga yetadilar [2].

Najmiddin Kubroga ko‘ra, faqatgina “irodali o‘lim”ni (ya‘ni o‘z “men”idan voz kechishni) ko‘z oldiga keltira olganlarga ushbu yo‘lga kirishlari kerak. Bu holat har bir asosda takror-takror ta‘kidlab o‘tiladi. Shayx bu yo‘lni o‘ta ochiq va mukammal

deb ta'riflagan va boshqa bir joyda uni "kimyo" – ya'ni ma'danlarni oltin holiga keltirish san'ati yo'li deb ham atagan. Unga ko'ra, bu yo'l "o'nta asos" ustiga qurilgan. Ular quyidagilar: tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, doimiy zikr, tavajjuh, sabr, muroqaba va rizo.

Najmiddin Kubro zamoniga kelgunga qadar tasavvufiy hayot yoki sayr-u suluk (ma'naviy yo'l yurish) jarayonining bosqichlariga oid turli tasniflar ishlab chiqilgan edi. Odatda bu bosqichlar "holatlar va maqomlar" degan nom ostida berilgan bo'lib, ko'plab mutasavviflar ushbu masalaga qiziqish bildirganlar. Ular orasida eng mashhuri "o'nlik tasnif" bo'lib, u "Usulul ashara" deb ataladi. Bu atama tasavvufdagi 1000 dan oshiq maqomlar ichidan mashhur o'ntasiga nisbatan qo'llaniladi. Har xil davrlarda yashagan so'fiylar tomonidan belgilangan bu maqom va ruhiy darajalar, soliklar uchun ruhiy "to'xtash" va "nafas olish" joylari sifatida tasavvur etilgan [3].

Tasavvuf tarixida ushbu o'nlik tasnifga birinchi bo'lib Imom G'azzoliyda duch kelamiz. Uning mashhur "Ihyo ulumi-d-din" nomli asarida berilgan tartib quyidagicha:

Tavba, sabr-shukr, xavf-rajo, faqr-zuhd, tavhid-tavakkul, muhabbat-shavq, niyat-ixlos-sidq, muroqaba-muhosaba, tafakkur, zikrul mavt.

Suhravardiy ham xuddi Najmiddin Kubro singari tavba bilan boshlab, rizo bilan tugallanuvchi o'nlik tartibni beradi: Tavba, vara', zuhd, sabr, faqr, shukr, xavf, rajo, tavakkul, rizo.

Usulul ashara tushunchasining tasavvufda shuhrat topishida Shayx Najmiddin Kubro bilan bir qatorda ushbu ikki so'fiyning ham muhim hissasi bor. Shuningdek, ayrim tariqatlarga mansub mualliflarning tasavvufiy istilohlar yoki asoslarni bayon qilgan asarlarida ham bu "o'nlik" tuzilmani qo'llaganliklari kuzatiladi [3].

Mutasavviflar bu o'nlik tasnifni nima uchun bunchalik muhim deb bilganlar? Shayx Najmiddin Kubro faqat "Usulul ashara" emas, balki boshqa risolalarida ham nima uchun bu tartibni tanlagan? Qur'oni Karimda A'rof surasining 142-oyatida shunday deyiladi: **"Musu bilan o'ttiz kechaga va'dalashgan edik. So'ngra uni yana o'n (kecha) bilan to'ldirdik"**. Bu oyatda Musu alayhissalomning ma'naviy poklanishi va kamolot sari intilishi nazarda tutiladi. Bundan tashqari, ayrim hadislarida ham "o'n" soni ko'p marta ta'kidlanadi. Bularning barchasi mutasavviflarga ilhom manbai bo'lgan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, bu tuzilma oson esda qolishi, yodlab olinishi va muridlarga oson yetkazilishi kabi amaliy sabablarga ham tayanadi [4].

Najmiddin Kubro ilgari surgan "o'n asos" (Usulul ashara) tasodifan tanlangan emasligi aniq ko'rinadi. Chunki bu asoslar muayyan tartibda va o'zaro bog'liq tarzda

joylashtirilgan. Ustoz tomonidan tizimlashtirilgan ushbu o‘n asosga tartibli ravishda amal qilinsa, yo‘lni osonlashtiruvchi xususiyatlarga ham ega bo‘lishi kuzatiladi.

Endi esa, Kubroviya tariqatining metodologiyasi sifatida qabul qilingan ushbu o‘n asosni birma-bir qisqacha ko‘rib chiqamiz:

1. Tavba:

Tasavvufda tavba – bu kishining yomon amallarni tark etib, Allohga qaytishini bildiruvchi tushunchadir. Mutasavviflar tavbada uchta shart zarur deb hisoblashadi:

Birinchisi: qilgan gunohlariga chin dildan pushaymon bo‘lish,

Ikkinchisi: darhol xatolarni tark etish,

Uchinchisi: o‘tmishda sodir etilgan xatolarga qaytmaslikka qat’iy niyat qilish.

Najmiddin Kubro tavbani “bandaning o‘z irodasi bilan Allohga yuz tutishi” deb ta’riflaydi. Shayxga ko‘ra, tavba yo‘lning ilk qadami bo‘lib, kuchli irodani talab qiladi. Inson avvalo o‘tmishdagi gunohlaridan tavba qilishi shart.

2. Zuhd:

Zuhd – “kamtarlik, dunyodan yuz o‘girish, xohlamaslik” kabi ma’nolarni bildiradi. So‘fiylarga ko‘ra, bu — dunyoviy narsalarga bo‘lgan istaklarning butunlay yo‘qolishidir [5].

Mutasavviflar zuhdni 3 qismga ajratadilar: avom (oddiy odamlar)ning zuhdi – haromdan va shubhali narsalardan tiyilishdir; irodali kishilarning zuhdi – keraksiz narsalardan voz kechish; xosslarning zuhdi esa – Allohdan boshqa barcha narsalardan butkul yuz o‘girishdir.

Najmiddin Kubroga ko‘ra, zuhddan maqsad – dunyo mol-mulkidan, nafsga yoqadigan narsalardan va mansab, maqomlardan – o‘lgan odam kabi begona bo‘lishdir.

Bu holatning o‘zi yetarli emas, haqiqiy zuhddan maqsad – oxiratga ham zohid bo‘lishdir.

Tasavvuf yo‘liga kirgan har bir muridning yagona maqsadi – Alloh jamoliga erishish bo‘lishi lozim. Chunki boshqa narsalarga berilish uni asl maqsaddan chalg‘itadi. Bu esa sayru suluk yo‘lida to‘siqlarga, ruhiy inqirozga olib keladi.

3. Tavakkul:

Tavakkul – “ishonish, suyanish, vakil tayinlash” ma’nolarini bildiradi. Tasavvufda bu – Alloh nazdidagi narsalarga suyanish va odamlar qo‘lidagi narsalardan umidni uzishdir.

Shayx Najmiddin Kubro tavakkulni: “Tirik bo‘lmagan odam kabi, barcha sabab va tadbirlarni tark etib, faqat Allohga suyanish”, deb ta’riflaydi. Unga ko‘ra, tavakkulning markazi qalbdir. Asl tavakkul – kishi har bir ishida o‘zini emas, Allohni ko‘rishi, barcha narsaning haqiqiy sababchisi – Yaratganning O‘zi ekanini qalban his

etishidir. Agar bu tushuncha qalbga singmasa, unda “menlik” hissi odamni yo‘ldan ozdiradi. Alloh haqiqiy tavakkul egasiga baraka va ne‘mat beradi, uni rizqsiz qoldirmaydi [5].

4. Qanoat:

Qanoat – bu “kamga rozi bo‘lish va taqdirga sabr qilish” deganidir. Haqiqat ahlining nazarida qanoat – nafs odatlangan narsalar topilmasa ham, sukut qilishidir. Najmiddin Kubroga ko‘ra, qanoat zaruriy ehtiyojlardan ortiqcha bo‘lgan barcha nafsoniy va hayvoniy istaklardan o‘lgan kishi kabi yiroq bo‘lishdir.

Alloma nazarida, ovqat, ichimlik va boshpanaga oid isrofdan ham saqlanish zarur. Qanoat sayr-u suluk yo‘lida barakani jalb etuvchi asosiy fazilatdir.

Agar tariqat yo‘lida yurgan darveshlar yuqorida zikr etilgan masalalarda ochko‘zlik qiladigan bo‘lsalar, ular o‘zlariga zarar yetkazadilar va zohidlik hayotlarini buzib qo‘yadilar. Qanoat aslida tavakkul natijasida paydo bo‘ladigan yoki tavakkul keltirib chiqaradigan maqomdir. Agar qanoat mavjud narsaga rozi bo‘lish degan bo‘lsa va haqiqatdagi yagona mavjudot Alloh bo‘lsa, demak, barcha narsa Undan so‘ralmog‘i lozim va U ato etgan narsaga rozi bo‘lish darkor.

5. Uzlat:

Uzlat tirik odam emas, balki o‘lik kabi xalq orasida yashashdan butunlay chekinib, yakkalik holatini tanlashdir. Najmiddin Kubro asarlarida bu amal tariqatning eng muhim tamoyillaridan biri sifatida e‘tirof etilganini ko‘rish mumkin.

6. Doimiy zikr:

Zikr – bu Allohdan boshqa barcha narsalarni unutib, faqat U Zotni tilga olish va eslash demakdir.

7. Tavajjuh (Yuzlanish):

“Tavajjuh” lug‘aviy jihatdan “yuz tutish, yo‘nalish” degan ma‘noni bildiradi. Tasavvufda esa bu – “qalbning Haqqa bo‘ysunib, har qanday mavjudot va narsalarning suratlaridan poklanib, faqat Allohga yuzlanishidir.”

Naqshbandiya tariqatida ham tavajjuh muhim tushuncha hisoblanadi. Ularning nazarida tavvajuh to‘rt xil bo‘ladi:

1. Allohga;
2. Qalbg;
3. Muridning shayxiga;
4. Shayxning muridiga yo‘nalishi.

Najmiddin Kubro esa bu turlardan faqat “Allohga tavajjuh”ga urg‘u beradi va uni quyidagicha ta‘riflaydi: ***“Kishi tirik emas, balki o‘lik kabi Allohdan boshqa har qanday mavjudotga chorlaydigan narsalardan yuz o‘girib, butun borligi bilan faqat Unga yo‘nalishidir [5].***

Tavajjuh – muridning o‘z nafsidan butunlay voz kechishini talab qiladi. Bu holat esa zikr orqali erishiladigan darajadagi maqom bo‘lgani sababli, zikrdan keyin keladi. Bu bosqichga yetgan so‘fiyning qalbida Allohdan boshqa na istak, na mahbub, na maqsad qoladi. Shundan anglashiladiki, tavajjuh yuksak bir maqomdir va shunga yarasha katta mas’uliyatni ham talab qiladi. Bu holat yuqori darajada hushyorlikni, doimiy diqqatni talab etadi. Bir lahzalik g‘aflat – kishining butun ma’naviy yutug‘ini yo‘qqa chiqarishi mumkin.

Junayd Bag‘dodiy aytganidek: “Agar bir siddiq (haqiqiy do‘st) ming yillar davomida Allohga tavajjuh qilsa-yu, bir lahzaga U Zotdan yuz o‘girsas, yo‘qotgani topganidan ham ko‘proq bo‘ladi”.

8. Sabr:

Lug‘aviy jihatdan sabr – “chidash, sabot, bardosh” deganidir. Tasavvufda esa bu: “Nafsni itoatga majburlash, Allohning buyruq va taqiqlariga rioya qilishga zo‘rlash hamda ruhni turli musibatlarga qarshi bardoshli bo‘lishga tayyorlashdir”.

Qushayriy sabrning to‘rt turini eslatadi:

1. Bandaning o‘z irodasi bilan erishgan narsalarga sabr qilishi,
2. Irodasidan tashqarida ro‘y bergan narsalarga sabr,
3. Allohning buyruqlarini ado etishda ko‘rsatilgan sabr,
4. Taqiqlangan narsalardan uzoq turishda namoyon bo‘lgan sabr.

Shayx Najmiddin Kubro sabrni zuhd tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq deb hisoblaydi. Unga ko‘ra sabr – bu tirik emas, balki o‘lik kabi, nafsning huzur-mazmun topadigan narsalaridan mujohada orqali uzoqlashishdir. Bu yo‘l bilan nafs odatlanib qolgan narsalarni bermay, uni mukammal va to‘g‘ri yo‘lga solish, uni yuksak fazilatlar sari yetaklashda qat’iylik va sobitqadamlik zarur bo‘ladi [5].

9. Muroqaba:

Muroqaba – lug‘aviy ma’noda “nazorat qilish, kuzatish, saqlash” deganidir. Tasavvufda bu — bandaning har qanday holatda Alloh uni kuzatib turishini, qalbida nima borligini bilishini doimo yodda tutishidir. Ushbu idrok doimiy bo‘lsa, u holda bu, bandaning Allohga nisbatan “muroqabasi” bo‘ladi. Shuningdek, muroqabaning “ilohiy fayz kutish” ma’nosi ham bor. Najmiddin Kubro o‘z asarida muroqabani aynan shu ikkinchi ma’noda ishlatadi va uni quyidagicha ta’riflaydi:

“Muroqaba – bu banda o‘zining butun kuch va harakatlarini tark etib, xuddi o‘lgan odam kabi holatga tushishidir. Bu maqomda bo‘lgan solik (yo‘lovchi) itoat va solih amallar orqali Allohning lutfini istaydi, ilohiy in’omlarni kutadi. U Allohdan boshqa barcha mavjudotlardan yuz o‘girib, Uning muhabbati daryosiga sho‘ng‘iydi. Allohga yetishish istagida yonib, nihoyat Uning huzurida zavq bilan yig‘laydi. Faqat Allohga suyanadi, faqat Undan yordam so‘raydi. Natijada, Alloh unga nur yuboradi,

rahmat eshiklarini ochadi, azob eshiklarini yopadi. Bu nur tufayli, riyozat va mujohadalar bilan yo‘q qilib bo‘lmaydigan nafi ammora bir zumda yo‘q bo‘ladi”.

To‘g‘ri bajarilgan muroqaba natijasida solikda paydo bo‘ladigan bu nur ayrim mutasavviflar tomonidan “jazba” deb talqin qilinadi. Jazba – bu Allohning bandani O‘ziga yaqinlashtiruvchi ilohiy lutfidir. Alloh jazba orqali, solikni O‘ziga tortadi va u tasavvufiy suluk yo‘lida zarur bo‘lgan barcha narsalarga sa’y-harakat qilmasdan erishadi.

10. Rizo:

“Rizo” lug‘aviy jihatdan “mamnun bo‘lish, rozi bo‘lish” degan ma‘noni bildiradi. Tasavvufda esa bu – Allohning har qanday ishi va taqdiriga qalban rozi bo‘lish va Uning qilgan har bir ishidan mamnuniyat topishidir.

Hujvyriy rizoni ikki xilga ajratadi:

Allohning bandadan rozi bo‘lishi,

Bandaning Allohdan rozi bo‘lishi.

Unga ko‘ra, avvalo Allohning rizosi keladi.

Najmiddin Kubroning o‘nlik tizimida tavba bilan boshlangan ruhiy sayohat rizo bilan yakun topadi. Rizo – bu o‘lgan odamning taslimchiligi kabi, nafsning o‘z istaklaridan butkul voz kechishi, Allohning hech qanday qadimiy hukmiga norozilik bildirmaslik va barcha ishni Uning abadiy tadbiriga topshirishdir [5].

Alloh bilan banda orasidagi eng go‘zal fazilat – rizo va taslim bo‘lishdir. Bu maqomdagi odamlar uchun lutf (ne‘mat) va qahr (musibat) bir xil ko‘rinadi. Chunki ikkalasi ham mahbub bo‘lmish Allohdan kelmoqda. Oradagi barcha pardalar ko‘tarilgach, bu ikki hol aslida bir ekanligi ayon bo‘ladi.

Bu maqom – ilohiy yordam bilan beriladi. Biroq bunga erishish uchun ibodatda davomli bo‘lish, Allohning buyruq va ta‘qiqclariga qat’iy rioya qilish lozim. Chunki bu vazifalarni bajarmagan kish, ibodatning mohiyatiga yetmagan bo‘ladi va Allohga o‘zini topshira olmaydi [2].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bu yo‘lni to‘liq va muvaffaqiyatli bosib o‘tgan solik yomon illatlardan xalos bo‘ladi, ilohiy fazilatlar bilan ziynatlanadi va komil inson maqomiga yetadi. U “o‘lmasdan oldin o‘lgan”, ya’ni o‘z “men”ini yo‘q qilib, haqiqiy hayotga ko‘z ochgan bo‘ladi. Bu holat Junayd Bag‘dodiyning mashhur so‘zini eslatadi:

“Tasavvuf – bu Allohning seni senlikdan o‘ldirib, O‘zi bilan tiriltirishidir”.

Najmiddin Kubroga ko‘ra, bunday kishiga Allohning jamol nuri ato etiladi. Bu nur orqali u odamlarning holatlarini anglay oladi. Aslida, bu nur qalb ko‘zining ochilishi demakdir.

Bugungi kunda ma'naviy-intellektual inqiroz, axloqiy zaiflik, ruhiy beqarorlik singari muammolar fonida Najmiddin Kubro g'oyalari inson qalbini poklash, ijtimoiy barqarorlikka hissa qo'shish va shaxsiy mas'uliyatni yuksaltirish kabi jihatlari bilan dolzarb bo'lib bormoqda. Ayniqsa, yosh avlodni ruhiy va axloqiy tarbiyalashda "Usulul ashara"dagi tushunchalarni amaliy asos sifatida qo'llash mumkin.

Alloma merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy jamiyatda ma'naviy yangilanish va insoniy qadriyatlarni tiklashda ham beqiyos manba bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abbadi Ardasher. So'fiynoma. G'ulom Husayn tahriri ostida. – Tehron: Intishorot Bunyod Farhangi Eron, 1347
2. Evrâd-ı Fethiyye-i Necmeddîn Kübrâ, Süleymaniye Ktp., Şazeli Tekkesi, nr. 106/1.
3. İslam Felsefesi Tarihi, çev. Hüseyin Hatemi, İletişim Yay., İstanbul, 2002.
4. Komilov N. Najmiddin Kubro. Risola. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1995. – 32 b.
5. Najmiddin Kubro. Usulul ashara. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2005. – 15 b.
6. Nancy Pearson. The Man of Light in Iranian Sufism. Omega Publications, New Lebanon, 1994.
7. The Heritage of Sufism, ed. Leonard Lewisohn, Oneworld Publications, England, 1999, II, 121-158.
8. Saidov, S. (2025). IBN SINONING AXLOQ ILMIGA OID RISOLALARI. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI, 269.
9. Saidov, S. (2025). ABDULLOH IBN MUQAFFANING "AL-ADAB AL-KABIR" ASARI ISLOM FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA. TAMADDUN NURI JURNALI, 7(70), 201-204.
10. Saidov, S. (2024). IBN SINO RISOLALARIDA RUHIY TARBIYA MASALALARI. International scientific journal of Biruni, 3(1), 269-273.
11. Saidov, S. (2023). "TARIXI GARDIZIY" ASARINING TARIXIY QIYMATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(2), 842-847.